
XITOYLIK INVESTORLAR BILAN HAMKORLIK

Qo'shtepa tumanida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, aholi farovonligini oshirish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda.

Kuni kecha Xitoy Xalq Respublikasining bir qator investorlaridan iborat delegatsiya tumanga tashrif buyurdi. Mehmonlarni tuman hokimining o'rinbosari - Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i Xurshidjon Ahmedov boshchiligidagi mutaxassislar kutib oldi.

Investorlar tumanda qog'oz mahsulotini ishlab chiqarish faoliyatini yo'lga qo'yish taklifini bildirdilar.

Mehmonlarga taklif etilgan binolardan "Sohibkor" MFY hududida joylashgan "Marg'ilon ta'mirlash mexanika zavodi" MChJ binosi ma'qul keldi va o'zaro memorandum tuzishga kelishib olindi.



2020-01-09 11:51:53